


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2021- yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-iyun oylarida 2 327,6 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida **2 922,9** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **125,6 %**), Jomboy tumanida **2 284,8** ming so'mni (**98,2 %**) tashkil etgan. Pastdarg'om tumanida **2 246,4** ming so'mni (**96,5 %**) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan Oqdaryo tumanida **1 836,9** ming so'mni (**79,0 %**), Paxtachi tumanida **1 849,2** ming so'mni (**79,4 %**), Kattaqo'rg'on tumanida **1 836,8** ming so'mni (**78,9 %**), Ishtixon tumanida **1 862,0** ming so'mni (**80,0 %**) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, %da)




Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)


	<i>2020- yil yanvar- iyun</i>	<i>2021- yil yanvar- iyun</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Samarqand viloyati	2093,7	2327,6	111,2
Samarqand sh.	2547,3	2922,9	114,7
Kattaqo'rg'on sh.	1948,4	2060,7	105,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1683,6	1839,6	109,2
Bulung'ur	1797,7	1899,4	105,6
Jomboy	2318,8	2284,8	98,5
Ishtixon	1723,9	1862,0	108,0
Kattaqo'rg'on	1726,6	1836,8	106,4
Qo'shrabot	1752,4	1943,4	110,9
Narpay	1718,6	2215,2	128,9
Payariq	1690,5	1902,8	112,5
Pastdarg'om	2173,5	2246,4	103,3
Paxtachi	1624,3	1849,2	113,8
Samarqand	1776,1	2033,8	114,5
Nurobod	1912,4	2135,0	111,6
Urgut	1782,3	2107,9	118,2
Toyloq	2015,2	2011,9	99,8

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, viloyat ko'satkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 724,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 13,8 %ga kamaygan.



Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 802,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 5,3 %ga kamaygan.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 712,1 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,0 %ga kamaygan.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 532,4 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 36,0 %ga oshdi.

➤ **Axborot va aloqa sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 897,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning shu davri bilan taqqoslaganda 64,0 %ga oshdi.



➤ **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 145,9 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 13,1 %ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 132,0 ming so'mni tashkil qildi va 2020- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 12,2 %ga oshdi.



➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 949,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 14,9 %ga oshdi.


San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 027,3 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 8,8 %ga oshdi.




Boshqa faoliyat turlari sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 600,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2020- yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 18,3 %ga oshdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-iyun. aishloq xo'ialiai va kichik tadbirkorlik subvektlarisiz. mina so'm)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil 1- fevraldagi **747 300,0** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(66) 235-72-35



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI